



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 23-dekabr, seshanba,
145 (24.175)-son

O'zbek xalq
maqoli

Ish bor
yerda xato
bor

Yapon tadbirkorlari Samarqndda to'qimachilik zavodi ochadi

Davlatimiz rahbarining Yaponiyaga amalga oshirgan rasmiy tashrifi doirasida o'tkazilgan biznes forum va tadbirkorlar bilan uchrashuvlarda viloyat hokimi o'rinbosari Xurshidbek Samiyev ham ishtirok etdi.



Tashrif doirasida Yaponiyaning "Okamoto Corporation" kompaniyasi prezidenti Ryutaro Okamoto va X.Samiyev ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalariga e'tibor qaratdilar.

Samarqandda paxta yetishtirishdan tortib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan to'liq jarayonni qamrab oladigan paypoq ishlab chiqarish zavodini barpo etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar muhokama qilindi. Shuningdek, Samarqandda paxta yetishtirishdan tortib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan to'liq jarayonli paypoq ishlab chiqarish zavodini barpo etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar muhokama qilindi.

Viloyat hokimi o'rinbosari X.Samiyev O'zbekistonning Nagoya viloyatidagi faxriy konsuli sifatida ko'p yillar faoliyat yuritgan Hiroyuki Ito bilan uchrashuvda Yaponiyaning salohiyatli tadbirkor va ishbilarmonlarini investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun viloyatimizga jalb etish va Bulung'ur tumanida ular uchun erkin iqtisodiy zona tashkil etish taklifini ilgari surdi. Shuningdek, yaponiyalik yetakchi investorlar ishtirokida vebinarlar tashkil etish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Yaponiyaga amalga oshirilayotgan tashrif doirasida hokim o'rinbosari Yaponiyaning "Masui Co., Ltd." kompaniyasining O'zbekistondagi mas'ul vakili Chinori Tokita bilan uchrashuv o'tkazdi.

Mazkur kompaniya Samarqandning ip va kalava xomashyosidan foydalanib, Yaponiyada "SAMARQANDARYO" brendi ostida sochiq va boshqa to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi.

Uchrashuv davomida tomonlar o'zaro hamkorlik istiqbollari, yangi loyiha takliflari hamda kompaniya vakillarining 2026-yil fevral oyida viloyatga tashrifi masalalarini muhokama qildilar. Shuningdek, viloyatda to'qimachilik va trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha muzokaralar olib borishdi.

Samarqand shahrida IT sanoati inkubator binolarini qurish loyihasiga start berildi.

Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadbirda viloyat hokimi Adiz Boboyev, Raqamli texnologiyalar vazirining maslahatchisi Jamshid Egamberdiyev, IT-park kuzatuv kengashi raisi Farhod Ibrohimov, loyihaning bosh pudratchi vakili, Xitoyning O'zbekistondagi "Shanghai Construction Group" kompaniyasi bosh direktori Pang Shengjian hamda soha vakillari ishtirok etdi.

— Ushbu zamonaviy IT Parkning qurilishi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni turli sohalarga keng joriy etish, shuningdek, axborot texnologiyalari bo'yicha yosh iqtidorli mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi, — dedi viloyat hokimi A.Boboyev. — Majmuada startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlash uchun barcha shart-sharoitlar yaratiladi. Bu esa hududda axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

ZAMONAVIY IT-PARK QURILISHI BOSHLANDI



IT inkubatsiya markazi bir gektarga yaqin maydonni egallagan bo'lib, loyiha EPC+F (Muhandislik, ta'minot, qurilish + moliya) modeli asosida Xitoyning O'zbekistondagi "Shanghai Construction Group" kompaniyasi to-

monidan amalga oshirilmoqda.

— Kompaniya xalqaro miqyosda amaliyotga ega bo'lgan kuchli, ko'p tarmoqli qurilish kompaniyasi bo'lib, 2024-yilda uning yillik daromadi 41 milliard AQSh dollariga yetdi, — dey-

di "Shanghai Construction Group" kompaniyasi bosh direktori Pang Shengjian. — U "Fortune Global 500", ya'ni dunyoning eng kuchli kompaniyalari 500 taligi ro'yxatida 354-o'rinni, dunyoning eng yirik pudratchilari reytingida 8-o'rinni egallagan. 2019-yilda O'zbekiston bozoriga kirib kelgan kompaniyamiz EPC+F modeli asosida "Toshkent city", uchta bank bosh ofis binolari loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirdi. Samarqand IT-sanoati inkubator binolarini qurish loyihasini ham muvaffaqiyatli qurib bitkazamiz.

EPC+F modeli asosida quriladigan IT sanoati inkubator binolari loyihalash, dizayn xarid qilish, qurish va moliyalashtirish vazifalarini o'z zimmasiga oladi. Loyihani rejalashtirish, tizimlashtirish, xavfsizlik standartlari va muhandislik boshqaruvi sohasidagi ishlar qonun talablariga va xalqaro muhandislik amaliyotini to'liq hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

F.RO'ZIBOYEV.

"Zarafshon" bong uradi



Narpaydagi suv va oqova muammolari qachon hal bo'ladi?

Bugungi kunda Narpay tumanida istiqomat qiladigan 233 ming aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 72,5 foizni tashkil qilsa, 4,8 foizi oqova tarmoqlaridan foydalanadi.



(Davomi 3-sahifada) >>>

Kengash yetakchilikka intiladi

Tegishli qonunlar asosida mahalliy kengashlar va ijro organlarining alohida faoliyat ko'rsatishiga imkon yaratilishi, raisning obro'li deputatlar safidan saylanishi, kengashlarda doimiy asosda ishlovchi kotibiyatning tashkil etilishi jamiyatimizga o'zgacha jo'shqinlik berdi. Buni bahs-munozaralar bilan o'tayotgan sessiyalar misolida ham ko'rish mumkin. Ayniqsa, sessiyalar qarorlarining ijrosi jiddiy so'ralishi tashkilot rahbarlari mas'uliyatini kuchaytirmoqda.

Lekin hali bu borada muammolar ham yo'q emas. Xususan, bir vazifaning kengash, hokimlik va vazirliklar tomonidan bajarilishi yoki vazirliklar bajaradigan funksiyalarning kengashlarga ham yuklanishi ancha qiyinchilik tug'dirayotgandi. Oliy Majlis Senatining keyingi yalpi majlisida aynan ana shu muammolarni bartaraf etishga oid qonunlar ma'qullandi.

«Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonun asosida mahalliy kengashlar hamda hokimliklarning vazirlik va idoralarning vazifalarini yanada aniqlashtirildi. Qonun 81 maddadan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasining 9 ta kodeksi hamda 69 ta qonunlariga o'zgar-

tirish va qo'shimchalar kiritildi. Bu yerda men «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi, «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi, «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi, «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi, «Aholini ro'yxatga olish to'g'risida»gi Qonunlarni nazarda tutyapman.

Shu o'rinda jamoat transportidan foydalanish borasida tegishli qonunlarga kiritilgan o'zgarishlarni ta'kidlab o'tsam.

Birinchidan, hokimliklar shahar va tumanlarda jamoat transportini shakllantiradi, yo'llarni ularning yurishiga moslaydi, bekatlarni joylashtiradi, iqtisodiy tushumlar hisobini yuritadi, aholining transport xizmati yuzasidan fikrlarini o'rganadi.

Ikkinchidan, mahalliy kengashlar jamoatchilik fikri asosida transport harakati

sifatini o'rganadi, ijro organlari tuzgan yo'l xaritalari va loyihalarini tasdiqlaydi hamda uning ijrosini nazorat qiladi.

Deyarli barcha sohalarda mahalliy kengashlar va ijro organlarining faoliyati ana shunday aniq belgilandi. Vazirlik va idoralar amalga oshirilishi zarur bo'lgan ko'plab funksiyalar mahalliy kengash vakolatidan chiqarildi. Yoki aksincha, bevosita hududlariga tegishli bo'lgan 20 dan ziyod vakolatlar mahalliy kengashlar ixtiyoriga berildi.

Bir so'z bilan aytganda, tizimdagi vazifa va funksiyalarning, vakolatlarning yanada teranlashuvi har bir siyosiy kuchning zo'riqmasdan, erkin faoliyat ko'rsatishiga imkon beradi. Xususan, mahalliy kengash deputatlari ana shu imkoniyatdan foydalanib, faollikni oshirmoqda. Ular ijro hokimiyati organlari rahbarlarining aniq loyihalar yuzasidan hisobotlarini eshitishtirish orqali mintaqadagi ko'plab muammolarga yechim topmoqda. Kengashlar ishchi guruhlariga nodavlat va jamoat tashkilotlari vakillarining, mahalla faollarining kiritilishi jamiyatdagi o'zgarishlardan, olib borilayotgan oqilona siyosatdan har bir xonadonning xabardor bo'lishini ham ta'minlayapti.

Shavkat SHARIPOV,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

Senator mulohazasi



Yaxshi fazilatlil odamlar doimo jamiyatdagi ijtimoiy muhitga ta'sir o'tkazgan. Ezgu xislatlari bilan odamlarni savobli ishlarga chorlagan. Donishmand va allomalarimiz hayoti buning yorqin dalilidir. Binobarin, ibrat olish tarbiyada juda katta samara beradigan vosita. Kimki farzandida ana shu hafsala va ishtiyoqni shakllantira olsa, o'sha o'g'il-qiz, albatta, hayotda o'zining munosib o'rnini topa biladi.

IBRAT – ENG YAXSHI TARBIYA

Prezident Shavkat Mirziyoyev shu bois ulug'larimizning ibratli hayotidan, boy merosidan xalqni ko'proq bahramand etish takliflarini bildirmoqda. Gap buyuklar qadamjosini obod qilishgina emas, balki ularning inson tafakkuriga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan boy ma'naviy merosini targ'ib qilishga qaratilmoqda. Taniqli ziyolilar nomi bilan ataladigan ma'rifiy markaz va maktablarning faoliyati bu tajriba juda ma'qul ekanligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun tumanimiz ahli va shaxsan o'zim davlat rahbarining buyuk jaded Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini nishonlash to'g'risidagi tashabbusidan juda xursand bo'lib, qo'llab-quvvatladi, bu ezgu ishga hissa qo'shishga harakat qildik.

Negaki bu ma'rifatlil inson ibratli odamlarni chinakam fidoyilikka da'vat etadi. Bu haqiqatni dunyo tan olmoqda.

Ana shu ishonchimiz tufayli Behbudiy hazratlarining yubileyi munosabati bilan tumanimizda ham qator tadbirlarga qo'l urdik. U kishi tug'ilgan Baxshitepa qishlog'ida ulug' jaded nomi bilan bog' barpo etildi. Bu ezgu harakatga Behbudiyning avlodlaridan sanalagan Raufxon Xodiyev qo'l urdi. Bog' yonida jaded bobomiz uy-muzeyi tashkil etildi, qishloq ahli uchun kutubxona ochildi. Darvoqe, bog' o'rta-sida Behbudiyning taniqli haykaltarosh Umrzoq Sharipov tomonidan yaratilgan byusti o'rnatildi.

Bu tadbirlar nafaqat qishloq ziyolilari, balki tuman aholisi tomonidan qizg'in kutib olindi. Binobarin, 15-maktabda a'lochi o'quvchilarga Behbudiy nomi bilan ataladigan stipendiya ham tashkil etilgan.

Yaqinda ushbu obyektlar ochilishi munosabati bilan 15-dekabr kuni tuman miqiyosida Behbudiy hazratlarini yod etdik: joylarda uning kitoblari o'qildi, asarlaridan parchalar qo'yildi, ezgu xislatlari aytib o'tildi. Ziyolilarimiz bunday tadbirni muntazam o'tkazish taklifini bildirdilar.

Bundan tashqari, Shopo'lot qishlog'idagi madaniyat saroyida viloyat musiqali drama teatri jamoasi «Mahmudxo'ja Behbudiy» spektaklini



namoyish etdi. Toyloqliklar asarni juda katta qiziqish va hayajon bilan tomosha qildilar. Muhimi, spektakldan juda katta saboq oldilar.

Buyuk jadidning jamiyatdagi ibratli mohiyatiga bag'ishlangan konferensiyada allomaning ezgu xislatlari, ijoddagi mahorati, siyosatdagi jasorati haqida olimlar, yosh tadqiqotchilar batafsil ma'lumot berdilar.

Allomaning evarasi Shohruh Behbudiyning bobosi vafoti va qatag'on qilingandan keyin sulola boshiga tushgan tashvishlar va keyinchalik bu ulug' inson sha'ninging ulug'lanishi bilan bog'liq mulohazalari to'planganlarini befarq qoldirmadi. Ko'pchilik xalq ma'rifati, ozodligi yo'lida ko'rsatilgan fidoyilik hech qachon izzis qolmasligini tushunib yetdi.

Shu o'rinda aytib o'tmoqchimanki, biz allomalar ibratining tarbiyadagi o'rnidan oqilona foydalanish rejalarini tuzganmiz. Buyuk mutafakkir Ad-Doromiy manzilgohi obodonlashtirilmoqda. Endi uning kitoblarini chop etish arafasidamiz. Professor Najmiddin Komilovdek faylasuf hamqishlog'imizning ham ijtimoiy qarashlarini targ'ib etishni rejalashtirganmiz. Bunday tadbirlar jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda, aholi tafakkurini oshirishda juda katta ahamiyatga ega.

Behzod RAHMATULLAYEV,
Toyloq tumani hokimi.



Prezidentimizning shu yil 11-sentabrda gi “O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ta’lim-tarbiya tizimida alohida o‘rnak ko‘rsatgan xodimlardan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoniga binoan, ta’lim sohasida fidokorona mehnat qilayotgan yurtdoshlarimiz davlat mukofotlari bilan taqdirlandi.

Ular orasida Oqdaryo tumani-da joylashgan 47-umumta’lim maktabining matematika fani o‘qituvchisi Baxtiyor Hasanov ham bor. U fidokorona mehnati uchun “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlandi.

- Yurtimizda ustoz va murabbiylarga bo‘lgan hurmat-ehtirom, o‘qituvchi maqomining yil sayin yuksalib, jamiyatdagi o‘rni va ta’siri tobora mustahkamlanib boryapti, deydi B.Hasanov. - Bir paytlar maoshimiz shun-

JINOYAT QUROLI: AXBOROT TEKNOLOGIYALARI

Bugungi kunda axborot texnologiyalari inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Internet, onlayn to‘lov tizimlari, raqamli xizmatlar va mobil ilova orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar kundalik ehtiyojga aylandi. Biroq axborot texnologiyalarining tez sur‘atlarda rivojlanishi bilan birga, ulardan noqonuniy foydalanish holatlari ham ortib bormoqda.

Viloyatda jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha tizimli choralar ko‘rilayotganiga qaramay, kiberjinoyatchilik holatlari kun sayin ko‘paymoqda. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, joriy yilning shu davrigacha sodir etilgan jinoyatlarning qariyb yarmi, ya’ni 46 foizi kiberjinoyatlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Bu ko‘rsatkich nafaqat raqamli xavfsizlik darajasining pastligini, balki aholining axborot madaniyati yetarlicha shakllanmaganini ham ko‘rsatadi. Oqibatda ushbu kiberjinoyatlarning qariyb 98 foizi fuqarolarning bank plastik kartalaridan pul mablag‘larini noqonuniy yo‘l bilan qo‘lga kiritish bilan yakunlangan.

Kiberjinoyatchilikning amalga oshirilish shakllari ham ko‘payib bormoqda. Tahlillar mazkur turdagi jinoyatlarning 2022 tasi soxta havola, zararli dastur orqali karta yoki qurilma boshqaruvini qo‘lga kiritish, 1400 tasi xizmat yoki tovarga oldindan to‘lov talab qilish, 90 tasi telefon orqali bank xodimi nomidan qo‘ng‘iroq qilish (IP (telefoniya)), 285 tasi soxta “onlayn birja”da pul ko‘paytirishga va 282 tasi turli sohalarga investitsiya kiritishga taklif oqibatida kelib chiqqanligini ko‘rsatmoqda. Tashvishli, fuqarolar 32 ta holatda merosni olish, pul yuborishni va‘da qilish yoki xayriyalarga pul so‘rash shaklidagi ko‘p marotaba ogohlantirilgan firibgarlik tuzoqlariga ham tushganligidir.

Raqamlardan bilish mumkinki, hozirgi kunda firibgarlar ko‘pincha soxta havolalar va zararli dasturlar orqali fuqarolarning bank kartalari yoki qurilmalari ustidan nazoratni qo‘lga kiritish orqali jinoyat sodir etmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar orqali turli tovar va xizmatlar uchun oldindan to‘lov olib, keyin esa ularni yetkazib bermaslik holatlari ham keng tarqalgan. Telefon orqali bank xodimi nomidan murojaat qilib, shaxsiy ma’lumotlar va moliyaviy ma’lumotlarni so‘rab olish yo‘li bilan amalga oshiriladigan firibgarlik usuli ancha faol qo‘llanilmoqda.

Shuningdek, onlayn kredit olib berishni va‘da qilib, oldindan to‘lov talab qilish yoki shaxsiy ma’lumotlarni qo‘lga kiritish holatlari ham keng tarqalmoqda. Bu kiberjinoyatchilikning yangi va murakkab shakllari rivojlanib borayotganligini ko‘rsatadi.

Kiberjinoyatchilikning ortib borishi bugungi kunda jamiyat xavfsizligi uchun jiddiy tahdidga aylanmoqda. Bu holat nafaqat texnik omillar, balki ijtimoiy va psixologik sabablar bilan ham uzviy bog‘liq. Ko‘plab fuqarolar internetda shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish madaniyatiga ega emas. Shu bois ular o‘z ma’lumotlarini noqonuniy maqsadlarda foydalanuvchi shaxslarga ongsiz ravishda taqdim etish holatlari tez-tez uchrab turibdi.

Shu bilan birga, ayrim tijorat banklari va onlayn to‘lov tizimlarida zamonaviy kiberhimoya usullarining joriy etilmagani, mijozlarning ma’lumotlari ishonchli himoya qilinmasligi firibgarlik holatlariga imkoniyat yaratayotganini ko‘rsatadi. Nazorat va javobgarlik mexanizmlarining jinoyat sodir etilgandan keyingina ishga tushishi ham shular jumlasidan.

Aytish joizki, bunday jinoyatlarning oqibati faqat iqtisodiy yo‘qotish bilan cheklanib qolmaydi. Fuqarolarning shaxsiy mablag‘larini yo‘qotishi, kichik biznes subyektlarining mablag‘lari o‘g‘irlanishi iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bank tizimi va raqamli xizmatlarga bo‘lgan ishonchning pasayishi raqamli iqtisodiyot rivojiga to‘sqinlik qiladi.

Kiberjinoyatchilikning yana bir xavfli jihati — uning tur va shakllari soat sayin takomillashib, ma’lum jamiyat va xalqqa moslashtirilayotganidir. U endi faqat pul yoki ma’lumot o‘g‘irlamaydi, balki shaxsiy hayotga aralashish, yolg‘on axborot tarqatish, ijtimoiy fikrni manipulyatsiya qilish kabi ma’naviy tahdidlarni ham o‘z ichiga oladi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun tizimli yondashuv zarur. Birinchi navbatda, aholi o‘rtasida raqamli xavfsizlik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni oshirish kerak. Internetdan xavfsiz foydalanish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish qoidalarini ommaviy axborot vositalari va ta’lim muassasalari orqali keng targ‘ib qilinishi lozim. Ikkinchidan, banklar va moliya muassasalari xavfsizlik protokollarini kuchaytirishi, zamonaviy shifrlash tizimlarini joriy etishi kerak. Shuningdek, kiberjinoyatlarga oid qonunchilikni takomillashtirish, onlayn firibgarlik uchun jazo choralarini kuchaytirish, xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, kiberjinoyatchilikka qarshi kurash faqat davlat organlarining vazifasi emas, balki butun jamiyatning umumiy mas’uliyatidir. Har bir fuqaro o‘z raqamli xavfsizligi uchun mas’ul ekanini anglab, axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirishi zarur. Faqat shundagina axborot texnologiyalari jinoyat quroli emas, balki jamiyat taraqqiyotining asosiy vositasiga aylanadi.

Elyor ULUG‘MURODOV,
xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati.

Kelajak bunyodkorlari - e‘zoz va e‘tiborda

chalik kam ediki, ta’til paytlarida ro‘zg‘or tebratish uchun ustachilik qilib, qo‘shimcha daromad topishga majbur bo‘lardik. Hozir o‘qituvchi uchun nafaqat mu-nosib maosh, balki o‘z ustida muntazam ishlash, mala-ka oshirish, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘zlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Shogirdlarimdan bir nechtasi ming dollardan ortiq maosh olib, oilasi bilan farovon hayot kechirmoqda. Ularga qarab, xursand bo‘laman, faxrlanaman va albatta, havas qilaman.

Men uchun ta’lim berish nafaqat kasb, balki katta mas’uliyat. Barcha sharoitlar muhayyo qilingan dar-gohda yoshlarga ta’lim berish juda zavqli. Bir paytlar informatika sinfimizda bir dona ham kompyuter bo‘lma-gan. Shuning uchun darslarimiz faqat nazariy bilim berish bilan chegaralanardi. Hozir maktabimizda 60 dan ortiq so‘nggi rusumdagi kompyuterlar, noutbuklar va boshqa zarur texnik vositalar mavjud. Bu imkoniyatlar o‘quvchilarning bilimi va talabini ancha yuqori darajaga olib chiqdi.

Darhaqiqat, so‘nggi yillarda xalq ta’limi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat ta’lim sifatiga, balki o‘qituvchining jamiyatdagi o‘rniga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, o‘rta maktab o‘qituvchilarining mavqeini oshirish, ularni moddiy va ma’naviy jihatdan

qo‘llab-quvvatlash borasida muhim ishlar qilinmoqda. Jum-ladan, o‘qituvchilar-ning oylik maoshi sezilarli darajada oshirilishi, uy-joy, avtotransport, maishiy texnika kabi zarur ehtiyojlar uchun imti-yozli kreditlar taqdim etilayotgani natijasida nafaqat pedagoglar-ning hayotiy daraja-si yaxшилandi, balki o‘qituvchilik yanada jozibador kasbga aylandi.

Albatta, jamiyat taraqqiyotida va yurt ravnaqida ta’limning o‘rni juda muhim. Bu sohada tinimsiz mehnat qilayotgan ustozlar, millat kamoloti yo‘lida fidoyilik ko‘rsatayotgan Baxtiyor Hasanov kabi ustozlarning, jonkuyar yurtdoshlarimizning faoliyati har qanday maqtovgva va mukofotga loyiq.

Shuhrat NORMURODOV.



FIL SUYAGIdan yasalgan SHAXMAT DONALARI



Muzeyimizdagi “O‘zbekiston voha xazinalari karvon yo‘llari chorrahasi-da” nomli ekspozitsiyada namoyish qilinayotgan fil suyagidan ishlangan shaxmat donalari VIII asrga oid bo‘lib, Y.Buryakov rahbarligida 1977-yilning yoz oylarida Afrosiyob arxeologik shaharchasi arkining g‘arbiy tomoniga tutash hududda joylashgan markaziy jome‘ masjidida olib borilgan arxeologik qazishmalar vaqtida topilgan. Ushbu shaxmat donalari 1979-yilning iyun oyida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi arxeologiya instituti xodimlari A.Asqarov va G.Shishkinlar tomonidan Samarqand muzeyiga topshirilgan. Arxeolog olim Y.Buryakov ushbu shaxmat donalarini VII asrning oxiri va VIII asrning boshlariga oid deb hisoblaydi. Shaxmat donalari turli xil ko‘rinish va o‘lchamlarga ega.

Shaxmat donalarining birin-chisida suvoriy uchta ot ustiga o‘rnatilgan taxtda o‘tiribdi. Chap qo‘lida otlarning jilovini ushlagan, o‘ng qo‘lida esa kuch-qudrat ramzi bo‘lgan cho‘qmor (gurzi) tutgan holatda yasalganligi ortiqcha qurol-aslahalarning yo‘qligidan bu shaxmat donasi “Shoh” bo‘lishi mumkin degan to‘xtamga kelish mumkin. Ikkinchi shaxmat donasida ikki suvoriy ikki ot

ustida, suvoriylardan biri ot egaridan pastda otning bo‘yin qismida o‘tiribdi va u chap tomonidan aylana shakldagi qalqon bilan himoyalangan. O‘ng tomoni esa saqlanib qolmagan va u taxminan otlarni boshqarib boryapti.

Uchinchi donada egarsiz ot ustidagi suvoriy tasvirlangan bo‘lib, shaxmat donasidagi suvoriyning chap qo‘lida relefli tasvirlar bilan bezatilgan qalqon, o‘ng qo‘lida qilich ushlagan holatda yasalgan. Ot boshqa shaxmat donalaridagi otlarga nisbatan kattaroq ishlangan bo‘lib, yuzi arslonga o‘xshaydi, dumi esa uzun ishlangan. To‘rtinchi shaxmat donasida ham ot ustidagi suvoriy tasvirlangan bo‘lib, suvoriy dubulg‘aga o‘xshash bosh kiyimda ishlangan, qo‘lidagi qalqon ham nisbatan kattaroq. Beshinchi shaxmat donasida fil ustidagi suvoriy jangchi tasvirlangan. Filning usti ot ustiga yopiladigan bargustuvonga o‘xshash yopinchiq bilan himoyalangan. Suvoriy filning bosh-bo‘yin qismida o‘tirgan holatda tasvirlangan. Boshida dubulg‘a bilan tasvirlangan suvoriyning o‘ng qo‘li yuqoriga ko‘tarilgan holatda va chap qo‘lida esa oval ko‘rinishdagi qalqon tutgan holatda yasalgan. Oltinchi va yettinchi shaxmat donalari piyoda askar hisoblanib, ushbu shaxmat donalarining ikkalasida ham piyoda askarlarning chap oyog‘i yarim bukilgan holatda ishlangan, oltinchi donaning chap qo‘lida to‘rtburchak shakldagi qalqon va o‘ng qo‘lida xanjar yoki kalta qilich bilan tasvirlangan. Yettinchi dona ham oltinchi donaga o‘xshatib yasalgan bo‘lib, uning chap qo‘lida doira shakldagi qalqon aks ettirilgan.

To‘lqin BO‘RIYEV,
Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi tarix bo‘limi boshlig‘i.

Antibiotiklar tibbiyotda keng qo‘llaniladigan, juda muhim dori vositalari hisoblanadi. Ular bakteriyalar chaqiradigan kasalliklarni davolashga yordam beradi. Biroq keyingi yillarda antibiotiklarning nazoratsiz ishlatilishi butun dunyoda jiddiy muammoga aylanib bormoqda. Afsuski, mamlakatimizda ham ushbu dori vositalarini retseptsiz sotish holati ko‘p uchraydi.

ANTIBIOTIKlar foydalimi yoki zararli?

Nima uchun ularni shifokor tavsiyasisiz qabul qilish xavfli?

Ko‘pchilik har qanday isitma, tomoq og‘rig‘i yoki shamollashda antibiotik qabul qilsam tez tuzalib ketaman deb o‘ylaydi. Aslida esa gripp, mavsumiy o‘tkir respirator virusli infeksiyalar, koronavirus kabi kasalliklar viruslar tomonidan chaqiriladigan kasalliklar hisoblanadi. Antibiotiklar esa faqat bakteriyalar tomonidan chaqiriladigan infeksiyalarga ta’sir qiladi, virusli kasalliklarda samara bermaydi. Ayrim bemorlar o‘zini o‘zi davolashga urinib, oldin yordam bergan antibiotikni yana qabul qiladi yoki dorixonadan maslahat oladi. Ammo bu bir qancha salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Natijada antibiotiklarga chidamlilik ortib boradi. Bemor antibiotikni noto‘g‘ri dozada yoki keraksiz paytda qabul qilsa, bakteriyalar unga moslashib, keyinchalik dori ta’sir qilmaydi. Bu esa og‘ir asoratlarga, sepsis, o‘pka yoki buyrak infeksiyalariga sabab bo‘lishi mumkin. Ichak mikroflorasi buziladi.

Ayrim antibiotiklar kuchli allergik reaksiya berishi mumkin. Antibiotiklarni uzoq muddat davomida yoki ortiqcha miqdorda qabul qilish jigar va buyrak faoliyatiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Antibiotiklar quyidagi bakteriyalar tomonidan chaqiriladigan kasalliklarda shifokor tomonidan

tavsiya qilinadi: bodomcha bezlarining yallig‘lanishida (strep-tokokk infeksiyasi), o‘pkaning va nafas yo‘llarining bakteri-yalar tomonidan chaqirilgan yiringli yallig‘lanishlarida, otit (quloqning bakteriylar tomoni-dan zararlanishi), siydik yo‘llari infeksiyasi, og‘ir jarayonli teri qoplamalari infeksiyalarida keng qo‘llaniladi.

Shifokor infeksiyaning turini, og‘irligini, bemor yoshini, allergiya-si bor-yo‘qligini inobatga olib, dori vositalarini tanlaydi. Bemor belgilangan doza va davomiylikka qat’iy rioya qilishi kerak.

Antibiotiklar - inson hayotini saqlab qoladigan muhim dori vositalari hisoblanadi. Lekin ulardan noto‘g‘ri foydalanish butun jamiyat salomatligiga xavf soladi. Bemorlarga dorixonalarda antibiotiklarni faqat retsept asosida berishni kuchaytirish orqali antibiotiklardan samarasiz foydalanishning oldi olinadi. Aholi orasida antibiotiklar “universal dori” emasligi yuzasidan tushuntirish ishlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun har qanday infeksiyada o‘zboshimchalik bilan antibiotiklarni qabul qilish emas, balki shifokor maslahatiga amal qilish eng to‘g‘ri yo‘ldir.

Otabek TIRKAShev,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti, tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).



(Davomi.
Boshlanishi 1-sahifada).

Tuman markazi – Oqtosh shaharchasida 1960-1962-yil-larda 18 ta 2 qavatli uy qurilgan bo'lib, o'sha vaqtda ichimlik suvi va oqova tarmoqlari tortilgan. Oqova tozalash inshooti mazkur uylardan tashqari o'nlab yirik ishlab chiqarish korxonalari va 30 dan ziyod ijtimoiy soha obyektlariga xizmat qilib kelgan. O'tgan 60 yil davomida yana ko'plab uy-joylar, korxona-tashkilotlar bunyod etildi. Ularning oqovalari kelib tushadigan inshoot eskirib, tarmoq butunlay izdan chiqdi. Inshoot joylashgan hududdagi mahalla va qishloqlarda yashovchi aholi bado'yi hiddan nafas olib bo'lmay qolgani, ekologiya ifloslanib ketgani tufayli turli kasalliklar kelib chiqishidan xavotir olib, tuman va viloyat rahbarlariga qayta-qayta shikoyat qilaverganidan nihoyat yangi suvoqova inshooti qurishga qaror qilindi. 2019-yilga kelib, tuman markazidan 4 kilometr uzoqlikdagi Do'stlik mahallasi hududida xorij texnologiyalari asosida sutkasiga 2 ming kub oqova suvni qayta tozalovchi inshoot qurilib, foydalanishga topshirildi.

- Bu yillar davomida bunyodkorlik ishlari davom etib, yana 23 ta ko'p qavatli uylar qurildi, - deydi «Samarqand suv ta'minoti» Narpay tuman bo'limi boshlig'i Azamat Mahmudov. - Bugunga kelib, 66 ta ko'p qavatli uyda 8 mingdan ziyod aholi yashaydi. Lekin 2 ming kub suvni tozalashga mo'ljallangan mazkur inshoot hozirda sanoat korxonalari va ko'p qavatli uylarning ko'payishi natijasida bir kecha-kunduzda 3200-3500 metr kub oqova suvlarini qabul qilmoqda.

Hozirda mazkur lokal inshoot va 6,6 kilometr uzunlikdagi tarmoq orqali 14 ta maktab, 55 ta bolalar bog'chasi, 4 ta tibbiyot muassasasi, shuningdek, paxtani qayta ishlovchi klaster, tikuvchilik fabrikasi kabi 6 ta yirik sanoat korxonasining oqova suvlari markaziy tarmoqqa chiqarib kelinmoqda. Inshootda oqova suvlarni mexanik tozalash jarayoni uchun 30 dona qayta ishlovchi maxsus idish bor.

Joriy yil Tinchlik mahallasi va Gazchilar qo'rg'onidagi 19 ta, shuningdek, Narpay mahallasida 12 ta yangi qurilgan ko'p qavatli uy markaziy oqova inshootiga ulangach, bosim yashada oshib ketdi. Shu atrofda joylashgan Do'stlik, Yangiobod va Navro'z mahallalari aholisi inshootdan chiqayotgan bado'yi hiddan qiynalganlarini aytmoqda. Ayniqsa, yosh bolalar o'rtasida turli yuqumli kasalliklar tarqalishidan xavfsizamoqda.

- Besh yildan buyon shu ahvol, ayniqsa, issiq kunlari hidiga chidab bo'lmaydi, - deydi shu mahallada yashovchi Fozil

Narpaydagi suv va oqova muammolari qachon hal bo'ladi?



Namozov. - Uyimizga mehmon chaqirishga uyalamiz. Bu muammoni hal qilishni so'rab bir necha bor tuman rahbarlariga murojaat qildik, lekin foydasi bo'lmayapti. Ularning "kelasi yil yangi loyiha qilamiz", deyishdan boshqa javobi yo'q. Nahotki yangi ko'p qavatli uylarni qurishni rejalashtirishdan, oldin ularni ichimlik suvi va kanalizatsiya bilan ta'minlash masalasini o'ylab ko'rishmagan bo'lsa?

Ko'p qavatli uylarning barchasi ham markaziy oqova tarmog'iga ulanmagan. Jumladan, Xalqobod mahallasida 7 ta, Nog'oraxonada 3 ta va Baxt mahallasida 1 ta ko'p qavatli uy oqovasi maxsus quduqlarga tashlanmoqda. Ularni "Samarqand suv ta'minoti" AJning tuman filiali xodimlari muntazam tozalab turishar ekan.

- O'tgan yili qurilgan ko'p qavatli uylardan biriga ko'chib o'tganmiz, - deydi I.Norboyev. - Yangi uyda barcha sharoit yaxshi, suv, gaz, elektr, oqova muntazam bo'ladi deb xomxayol qilgan ekanmiz. Dastlabki oylarda muammolar bo'lmadi. Keyinchalik elektr va gazda uzilishlar boshlandi. Ichimlik suvi ham soatbay beriladigan bo'ldi. Eng katta muammo - oqova tizimining yaxshi ishlamasligi. Kanalizatsiya qudug'i to'lib ketgani sababli yog'ingarchilik kunlari toshib yotadi. Kommunal xizmatga murojaat qilsak, darrov tuzatishadi. Ammo ular kelgunicha, hidiga chidab bo'lmaydi.

Tumanda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha ham yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. Islom taraqqiyot banki jamg'armasi mablag'lari asosida Turon, Nog'oraxona, Istiqlol, Navro'z va Sarbozor mahallalari aholisiga toza ichimlik suvi yetkazib berish uchun 8,5 milliard so'm mablag' ajratilgan

bo'lib, 18,3 kilometr ichimlik suvi tarmoqlari tortilmoqda.

Shuningdek, joriy yil dasht hududidagi Bo'ston mahallasining Qo'shtepa va Oybek qishlog'i aholisi toza ichimlik suvidan bahramand bo'ldi. "Samarqand suv ta'minoti" AJning tuman filiali tashabbusi bilan 17 kilometr uzoqda joylashgan buloqdan tarmoq tortib kelindi.

Biroq tumanda markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan Oltio'g'il, Umid, Bolg'ali, Mang'it, Tepaqo'rg'on kabi mahallalar aholisi shu muammodan qiynalmoqda.

- Tog' va chekka hududlarda joylashgan mazkur mahallalarning ichimlik suvi muammosini suv tashib borish bilan hal qilyapmiz, - deydi Azamat Mahmudov. - Korxonamizda 6 ta maxsus suv tashuvchi mashina bor. Haftasiga uch marta qatnaymiz. Har bir qishloqda 2-3 tadan xususiy rezervuar mashinalar ham bor. Ular xohlagan vaqti kelib, korxonamizda joylashgan nasos stansiyasidan toza suv to'ldirib ketishadi.

Tuman markazida 14 mahalla bo'lib, yaqin yillarda shaharcha aholisi soni 41 mingga yetishi kutilmoqda. Ichimlik suvi va oqova tarmoqlarini yaxshilash maqsadida bir necha bor takliflar berildi. Ammo loyiha qabul qilinmay qolavergan. 2026-yil uchun ham yangi loyiha berilgan. Bu loyihadagi 100 milliard so'mdan ziyod mablag' evaziga 15,5 kilometr tarmoq tortish, 5 ming kub oqovani tozalovchi inshoot qurish ko'zda tutilgan.

Ammo bu loyiha qachon amalga oshadi? Qachon mablag' ajratilib, qachon qurilish ishlari boshlanadi? Ungacha-chi? Aholi va'dalarga ishonib, chidab turishi kerakmi?

Dilmurod TO'XTAYEV,
"Zarafshon" muxbiri.



Mahalla yoshlariga – PREZIDENT SOVG'ASI

"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida o'tkaziladigan musobaqalar uchun viloyatdagi 1081 ta mahallaga Prezident sovg'asi – to'rt turdagi sport jihozlari topshirildi.

Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda viloyat sport hamda yoshlar ishlari boshqar-

mali mas'ullari, sport maktablari trenerlari, mahallalarda faoliyat olib borayotgan yoshlar yetakchilari ishtirok etdi.

Tadbirda joriy yilgi "Besh tashabbus olimpiadasi" mavsumlarida samarqandlik yoshlar respublikada peshqadam bo'lganligi ta'kidlandi.

— 360 dan ziyod sport jihozlarini qabul qilib oldik, — deydi Ishitxon tumani sport maktabi direktori o'rinbosari Zohid Arziq-

lov. — Bunday e'tibor yoshlarni ommaviy sportga keng jalb etish, iqtidorli yoshlarni kashf qilish va kelgusi musobaqalarga tayyorgarlik ko'rishga xizmat qiladi. Ayni paytda sport maktabimizda sportning 22 turi bo'yicha 2200 nafardan ortiq o'g'il-qiz shug'ullanib kelmokda. E'tiborlisi, sportchilarimizdan 18 nafari O'zbekiston milliy terma jamoasining asosiy tarkibiga, 20 nafardan ziyodi esa xaxira tarkibiga qabul qilingan.

Очиқ эшиклар кунида

коррупцияга қарши
курашиш масаласи

"Ўзмиллийбанк" АЖ Самарқанд вилоят бosh бошқармасига қарашли Ургут банк хизматлари марказида коррупцияга қарши курашишиш ойлиги муносабати билан "Очиқ эшиклар кунида" тадбири ўтказилди.

Унда "Ўзмиллийбанк" АЖ коррупциянинг олдини олиш бошқармаси коррупциянинг олдини олишни мувофиқлаштириш бўлими бosh мутахассиси Ш.Зиятов, фуқаролик ишлари бўйича Ургут тумани суди судьяси Ш. Муҳаммадқуллова, Ургут банк хизматлари маркази бошқарувчиси Қ.Умаров ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари масъул хodимлари иштирок этди.

Тадбирда коррупциявий хатти-ҳаракатларни ўз вақтида аниқлаш ва уларга барҳам бериш, бу илатни келтириб чиқарувчи шарт-шарoит ва сабаблар, унинг oқибатлари ҳақида банк хodимларига батафсил тушунча берилди. Шунингдек, Жиноят Кодексининг коррупцияга oид моддаларида белгиланган жазo чоралари, тизимда учраётган фирибгарлик, манфаатлар тўқнашуви ва таъма-гирлик ҳoлатларининг олдини олиш зарурлиги тўғрисида сўз юритилди.

Мулоқот давомида давлатимиз раҳбари томонидан шу йилнинг 5 март кунин коррупцияга қарши курашиш бўйича ййгилишда берилган топшириқлар ижроси юзасидан амалга оширилаётган ишларга ҳам эътибор қаратилди.

Жаҳбoр НАБИЕВ.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 6-noyabrda "Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni O'zbekiston Respublikasiga taklif qilish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga ko'ra chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni O'zbekiston Respublikasiga taklif qilish Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) yoki bevosita vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekistonga qanday taklif qilinadi?

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekistonda doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ariza berishi mumkin.

Ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalari vakolatli organ hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatilganligi uchun BHMning 5 foizi miqdorida davlat boji undiriladi. Ariza beruvchi YIDXP orqali murojaat etganda, boj summasining 90 foizini to'laydi.

Vakolatli organ tomonidan so'rovnoma kiritilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi avtomatlashtirilgan axborot tizimi yordamida ikki ish kuni ichida tekshiriladi.

Ariza beruvchining so'rovnomasi va unga ilova qilingan hujjatlar to'liq emasligi yoki ularda xato ma'lumotlar aniqlansa, ushbu hujjatlar ariza beruvchiga kamchiliklarni bartaraf etish uchun qaytariladi.

So'rovnoma va unga ilova qilingan hujjatlar qaytarilishining aniq sabablari ko'rsatilgan elektron shakldagi xabarnoma ariza beruvchiga ikki ish kuni ichida yuboriladi. Xizmat ko'rsatish natijasi bo'yicha taklifnoma taqdim etiladi.

Azim TURDIYEV,
Samarqand shahar adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassisi.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

RAHMAT, SHIFOKORLAR!

So'nggi yillarda mamlakatimizda aholiga malakali tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini bugun xalqimiz o'z hayotida sezmoqda. Bu borada xususiy klinikalarning ham roli oshmoqda. Xususan, Urgut tumanidagi "BIO MED" xususiy klinikasida yaratilgan sharoitlar havas qilgudek. Muassasa pensionerlar, nogironligi bo'lgan shaxslar va kam ta'minlangan oila vakillariga imtiyozli narxlarda xizmat ko'rsatmoqda. Yaqinda shu kilinika vrachlari ko'zimdagi kataraktani olib tashlashdi.

Klinika boshlig'i Ikrom Jumaniyozov, davolovchi vrach Zuxriddin Davronov, ko'z kasalliklari vrachi Isrofil Obloyarov, fizioterapiya bo'limi xodimlari Aslam Niyo'zov, Samariddin Boltayev, Nuriniso Inoyatova va boshqa xodimlarga Urgut tumanidagi pensionerlar nomidan minnatdorlik bildiraman. Barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, el salomatligi yo'lida amalga oshirayotgan ishlaringizda muvaffaqiyat tilayman.

Ravshan SOLIYEV,

O'zbekiston pensionerlari uyushmasi Urgut tuman kengashi raisi o'rinbosari.

DA'VOLAR BO'LSA...

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasida marhum Xushvakova Uktam Danayevnaga (2023-yil 15-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 48-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nurqosimov Ramziddin

Sayfiddinovich notarial idorasida marhum Ibragimova Istatga (1988-yil 3-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nurqosimov Ramziddin Sayfiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 80-uy.

Urgut tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hoshimov G'olib Baxtiyorovich notarial idorasida marhum Saidov Xoliq Boqiyevichga (2025-yil 13-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning

Hoshimov G'olib Baxtiyorovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Urgut tumani Amir Temur ko'chasi, 65-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Abdullayeva Rano Raimovnaga (2021-yil 16-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasida marhum Nazarov Farxod Pulatovichga (2025-yil 8-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahatov O'lmas To'rayevich notarial



Taraqqiyot har doim qarama-qarshi ta'sirlarni keltirib chiqaradi, nimalardadir o'zdirsa, qaysidir jihatlar ila insoniyatni ortga tortib turadi. Ayni kunlarda buni yaqqol his qilyapmiz. Yodingizda bo'lsa kerak, bundan bir necha yillar avval shaharlar qiyofasini zamonaviylashtirish maqsadida katta-katta ko'chalardagi daraxtlar ayovsiz kesildi, o'rniga yangi nihollar ekildi-yu, kundan kunga "zamonaviy" chiqitlar ko'payayotgan butun boshli shaharlar ulkan yashil hududlarsiz qoldi. Tabiat jonkuyarlarining o'sha paytdagi chiqishlari "chinorlar aholi orasida allergik xastaliklarning ortishiga sabab bo'lyapti" degan vaj bilan to'lasincha bosti-bosti qilindi. Bunday yirik miqyosdagi xatti-harakat aholi orasida daraxtlar kesilishiga nisbatan ko'nikish hissini paydo qildi. O'sha yillarda elektr, gaz ta'minotidagi muammolar tufayli tog'u dashtlardagi bor daraxtlar ham kesilib, o'tin bo'lib ketdi.

Yana bir jarayonni asosan mutaxassislar yaxshi bilishadi. Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida go'yoki katta imtiyozlar berildi. Ya'ni, ular faoliyatini tekshirish qisqartirildi. Hatto ishlab chiqarayotganlari inson salomatligi uchun juda muhim oziq-ovqat mahsulotlari bo'lgan korxonalarda ham sanitariya nazorati olib borishga ruxsat berilmadi. Ekologlar-ku ba'zi sanoat korxonalarini yoniga yo'lay ham olmadi.

Ha, o'ntagina ish o'rni yaratgan tadbirkor bu ishning nechog'lik murakkabligini yaxshi biladi. Lekin tadbirkorga real yordam bilan birga ham o'zining, ham aholi salomatligiga zid bo'lgan "imtiyozlar" berildi...

Xo'sh, bugun bu xatolar jabrini tortayotgan ekanmiz, uning oldini olish qanchalik murakkab, buning iloji bormi o'zi? Davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, faollar qaysi masalalarda ko'proq qat'iyat ko'rsatishi lozim? Bu haqda xalqaro ekolog ekspert To'raxon HOSHIMOV bilan fikrlashdik.

QURILISH MAYDONINING 30 FOIZI YASHIL HUDUD BO'LISHI LOZIM

- Keyingi paytda ijtimoiy tarmoqlarda O'zbekiston davlatida chang zarralar xalqaro me'yorlardan ancha oshib ketgani haqida xabarlar tarqalgani ortidan mamlakatimizda aynan ekologiya masalasida jiddiy qadamlar tashlandi, - deydi To'raxon Hoshimov. - Birinchi navbatda Ekologiya va iqlim o'zgarishi vazirligi to'g'ridan-to'g'ri Prezident bo'ysunuviga o'tgan milliy qo'mitaga aylandi. Bu juda muhim, sababi, uzoq yillik xatolarni tuzatish, ona tabiatimizni va aholi salomatligini asrash uchun kuchli siyosiy iroda va qat'iy amallarni bajarish lozim. Bu qo'mita qoshida bir nechta yo'nalishlarni qamrab olgan maxsus komissiyalar tuzildi, viloyatlarda uning ishi jonlandi.

Bu yil mamlakatimizda yog'ingarchilik kam bo'lgani tufayli iqlim o'zgarishlari yaqqol sezildi. Shuning uchun avvalambor, atmosfera havosini namlantirish, mavjud fontanlarni yoqish, shahardagi daraxt, o'simliklarni maxsus mashinalarda yuvish, kanal, kollektorlarni tozalash kabi birlamchi vazifalar amalga oshirilmoqda. Ko'milib ketgan ariqlarni tiklab, o'sha yerda maxsus havo-tomchi pardasini tashkil qilish lozimligi aytiladi.

Keling, avvalambor, mamlakatimiz havosidagi bu qadar ifloslanishning sabablariga to'xtalib o'tsak. Keyingi yillarda shaharlarda yirik qurilishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu qurilish maydonlarida ekologik talablar asosida qator amaliy ishlar bajarilgan bo'lishi kerak. Xususan, qurilishlar atrofida maydonning 25 foizini yashil hudud tashkil etishi lozim. Yangi qurilish maydonlaridagi daraxtlar saqlanib qolishida jamoatchilik nazorati o'rnatish uchun ushbu hududlar atrofi ochiqdligini ta'minlash kerak. Shuningdek, ekologiya, havo tozaligini saqlashda yana bir muhim jihat, ya'ni shamol yo'nalishini ham hisobga olish lozim. Shamol yo'lga qo'yilayotgan to'siqlar afsuski, mavjud. Ya'ni, katta shaharlarda asosiy shamol yo'llariga ko'p qavatli imoratlar gorizont va perpendikulyar tarzda qurilyapti. Shamol bu binolarga urilib, o'z funksiyasini bajarolmayapti, ya'ni havo almashinuvi sodir bo'lmayapti. Bundan ko'rinib turibdiki, ekologik ekspertiza loyihalarida ham ko'plab kamchiliklar bo'lgan.

BU YUMSHOQ AYTILGAN GAP

Shaharda amalga oshirilayotgan qurilishlarni kuzatar ekanmiz, ular atrofida 25 foiz tugul, bir foiz ham ko'klamzorlashtirish ishlari bajarilmaganiga guvoh bo'lamiz. Shamol yo'nalishlari haqida gap ketganda, ba'zi ko'p qavatli uylarning ichki tuzilishiga e'tibor qaratib. Yaxshi bilasiz, keyingi yillarda qurilayotgan uy-joylarning aksariyati bir tomonlama qurilmoqda. Ya'ni, kvartiralar derazasi faqat bir tomonga qaratilgan. Quyosh chiqish va botishi ko'rinishi lozim bo'lgan, kkki tomonlama havo almashin turadigan xonadonlar afsuski, o'tmishda qolib ketdi.

Xo'p, bu qurilishlar uchun ekologiya ekspertizasi xulosasi olinganmi? Bo'lsa, nega bunchalik nomuvofiqliklar bor? Shu o'rinda ko'pchilikda bu xulosalar, ehtimol, korrupsiya holati bilan olingandir, degan fikr paydo bo'ladi. Yana bir taxmin, kuchli bosimni ham nazardan qochirmaylik.

ZARARLI GAZLARGA REZINA CHANGI HAM QO'SHILADI

Ekologiya yomonlashuviga sabab bo'layotgan yana bir omil - avtotransport vositalari. Yurtimizda shu kunlarda, statistikaga ko'ra, 5 milliondan ortiq avtotransport vositasi bor. Samarqandning o'zida 500 mingga yaqin avtomobil bor, shuningdek, tranzit tarzda bir kunda 300 mingga yaqin avtomobil viloyat hududidan o'tadi.

- Bugun yoqilg'i orqali atmosfera yetkazilayotgan zararlarning oldini olish bo'yicha ancha ishlar amalga oshirilganiga guvoh bo'lyapmiz, - deydi T.Hoshimov. - Xususan, benzin yoqilg'isi bilan harakatlanayotgan avtomobillar havoga 78 foiz zaharli gazlarni chiqarsa, propan yoqilg'isi orqali bu ko'rsatkich 57 foizgacha tushirildi. Keyinchalik metan yoqilg'isi orqali 27 foizga tushdi. Mana, keyingi yillarda elektromobillar ko'payib qoldi. Bu borada yaxshi o'zgarishlar borligini kuzatayapmiz, ammo yana bir muhim masala bor.



Har bitta mashina bir yilda atmosfera 10 kilogramm miqdorda rezina changini tashlaydi. Asfalt va rezinalarning ishqalanishi oqibatida atmosfera rezina changi va turli noorganik moddalar chiqariladi. Bu raqamlarning oshishiga sabab bo'layotgan omillar ham bor. Keyingi paytda

yo'llarda turli sun'iy to'siqlar, ya'ni do'mpaklar paydo bo'lyapti. Ayniqsa, mahalla yo'llarida hech qanday ruxsatsiz aholi tomonidan juda qisqa masofalarda shunday to'siqlar o'zboshimchalik bilan qo'yilmoqda. Vaholanki, har bir mashina belgilangan tezlikda maromida harakatlaniishi kerak. Doimiy ravishda tezlikni keskin kamaytirish va oshirish yoqilg'ini ikki baravar ko'p miqdorda sarflashga to'g'ri keladi. Sun'iy yo'l to'siqlarni olib tashlash bo'yicha takliflarimiz inobatga olinib amaliy ishlarga kirishilgan.

TANGANING IKKINCHI TOMONI

Tabiiyki, yo'ldagi sun'iy to'siqlar bejiz qo'yilmayapti. Quyidagi raqamlarga e'tibor bering, shu yilning to'qqiz oyida viloyatda 747 ta yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan va ularning 44 foizi piyodalarni urib ketish holati bilan bog'liq. Bu hodisalarning 114 tasi tezlikka rioya etilmagan tufayli sodir bo'lgan. Shu sababli aholi shunday do'mpaklar qurishga majbur bo'lmog'da.

Avtomobillarning zararli chiqitlari haqida gap ketganda, ba'zi raqamlarni keltirib o'tish joiz. Chiqit gazlari tarkibida taxminan 220 ta zararli modda, jumladan, uglerod oksidi (CO), uglevodorodlar (CH), azot oksidi (HOx) va boshqa gazlar mavjud. Inson salomatligi uchun eng xavfli yurak-qon tomir va nafas olish tizimlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan uglerod oksidi va azot dioksididir.

Avtomobil kuniga o'rtacha 1 kilogramgacha chiqindi gaz chiqaradi. Chiqindi gazlarning kimyoviy tarkibi nafaqat inson salomatligi, balki hayvonlar, o'simliklar, tuproq va suv uchun ham xavflidir. Bundan tashqari, mamlakatimizda quruq ob-havo tufayli atmosfera havosida 8-9 oy davomida chang bo'ladi. Chang zarralari inson tanasi uchun ham zararli bo'lib, nafas olish yo'llari kasalliklari, dermatit, konyunktivit va boshqa kasalliklarga sabab bo'ladi.

Chiqit gazlari



tarkibida qo'rg'oshin bo'lishi mumkin, bu aqliy rivojlanish uchun xavfli va ayniqsa, bolalar uchun zararli, chunki ular zaharli metanga ko'proq sezgir.

CHANG-GAZ TOZALASH USKUNALARI QAYSI TASHKILOTDA BOR?

- Har bir qurilish obyekti ekologiyani xulosasini olishi kerak, bunda yer tanlashdan tortib uning atrofini ko'klamzorlashtirishgacha ko'zda tutilgan, - deya suhbatni davom ettiradi T.Hoshimov. - Qurilish amalga oshirilayotgan hududlarda havoni 91 foizgacha changlardan tozalab beradigan chang-gaz tozalash uskunalari

o'rnatilishi belgilangan. Jamoatchilik eshituvi o'tkazilmasa, ekologiya mas'ullarining xulosasi bo'lmasa, qurilishni boshlashga ruxsat berilmasligi kerak. Ekspertiza xulosalari berilayotganda birinchi navbatda hududda daraxtlar mavjudmi-yo'qmi, o'rganiladi. Yaxshi bilasiz, bugungi kunda mamlakatimizda belgilangan talablarga ko'ra, 78 turdagi daraxtlarni kesishga moratori o'rnatilgan.

Har yili Samarqandda 17,5 million tup daraxt ekilmoqda. Lekin ularning ko'karib ketishi qanday bo'lyapti? Bu masalani o'rganish uchun hokimliklar qoshida maxsus komissiyalar tashkil etilyapti.

Ishlab chiqarish sanoat korxonalari atrofida albatta yashil belbog'lar bo'lishi kerak. Bu atrofga-muhitga tashlanayotgan zararli chiqindilarning oldini olish uchun juda muhim. Birinchi toifadagi korxonalarga (ya'ni, atmosfera zarari miqdori katta bo'lgan) 2026-yil mart oyiga qadar avtomatlashtirilgan nazorat taftish uskunalarini o'rnatilib, shu korxona tomonidan atrofida tashlanayotgan zararli moddalar miqdori bo'yicha ma'lumot berib boriladi.

Sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta'sirini bartaraf etish ham asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Uzoq yillar davomida ekologlarning bu masaladagi roli hamin-qadar bo'lib keldi. Chunki tadbirkorlar faoliyatiga aralashish faqat Ombudsman nazoratida bo'ladi. Ya'ni, ekolog xodimlar u yoki bu korxonaning ekologiyaga keltirayotgan zararini o'rganish uchun unga murojaat bo'lishi, shundan so'ng Ombudsman ruxsati bilan o'sha korxonaning atrof-muhitga nechog'lik zarar keltirayotganini o'rganish mumkin edi. Yaqinda bu masalada o'zgarish bo'ladi, endilikda qo'mita to'g'ridan-to'g'ri shu vakolatga ega bo'ladi.

Bugun viloyatda besh mingga yaqin sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatadi. Ular orasida oziq-ovqat ishlab chiqarayotgan korxonalar soni jihatdan birinchi o'rinda

bo'lsa, qurilish materiallari, shinalar ishlab chiqaruvchi tashkilotlar ikkinchi o'rinni egallaydi. Xo'p, qaysi sanoat korxonasi atrofida yashil belboqqa ko'zingiz tushdi? Bu masalada ham afsuslanarli holatdandir.

To'g'ri, keyingi yillarda sanoat korxonalarida atmosfera zararli chiqitlarni chiqarishning oldini olish uchun qator uskunalar o'rnatilyapti. Ammo ekologiya haqida tasavvuri ham bo'lmagan, ishchi-xodimlar hayotiga xavf soladigan oddiy texnik qoidalariga rioya etmaydigan korxonalar qancha?!

Yuz minglab insonlarni ish bilan ta'minlashga, mamlakatdagi iqtisodiy ahvolni yaxshilashga hissa qo'shayotgan ushbu korxonalarining to'laqonli faoliyati muhim richaglarimizdan biri. Lekin bunday richag ekologiya, keyinchalik millionlab davlat pullari sarflanishiga sabab bo'layotgan salomatlikka sarflanishi hisobiga bo'lmasligi kerak. Aks holda, uning asoratini yillab yo'qotolmay ovora bo'lamiz, iqtisod rivoji uchun ishlagan richag ijtimoiy himoya hisobiga tarozi pallasini ko'tarib yuboradi.

"TOZA HAVO" QOG'OZDA EMAS, AMALDAGI MILLIY LOYIHAGA AYLANSLIN!

Ekologiyadagi bu muammolar ortidan yaqinda tuzilgan Ekologiya va iqlim o'zgarishi qo'mitasi rahbari Aziz Abdullahimov mamlakatda shu yaqin yillarda vaziyatni o'nglash uchun tuzilgan "Toza havo" milliy loyihasini jamoatchilikka taqdim etdi. Ushbu loyihada juda ko'p chora-tadbirlar belgilangan. Ular orasida yirik yashil hududlar tashkil etishdan tortib, issiqxonalarini bosqichma-bosqich gaz yoqilg'isiga o'tkazish, shina, mazut va boshqa chiqindilarni yoqish uchun jarimalar miqdorini keskin oshirish ham bor. Shuningdek, AI-80 benzini sotuvini taqiqlash, qurilish korxonalariga chang miqdorini kamaytirish yuzasidan qator choralar ko'rish lozimligi, ekologik jarimalarni bir necha baravarga oshirish, ekopolitsiya tizimi orqali nazoratni kuchaytirish, chiqindi poligonlari nazoratini davlat o'z zimmasiga olishi, "zararlanish kadastri" nazorat tizimini ishlab chiqish orqali aholini bevosita nazoratga jalb etish kabilar nazarda tutilgan.

...Ayni kunlarda kechqurun toza havoda sayr qilay, deb ko'chaga chiqsangiz, shaharning ayniqsa, biz "super" deb ataydigan hududida kuyuk bir hiddan ko'nglingiz ayniydi. Bu qo'lasalari hind kunduzi atmosfera tashlangan transport vositalarining zaharli gazlaridan tortib, o'sha hududdagi qator sexlardan chiqqan tutunlarni o'zida mujassam etgan. Bu ham kamlik qilganday, aholi orasida barg-xazonni to'plab, yoqish holatlari ham uchrab turadi. Ahvolimiz hozircha shunday. Lekin endi jiddiy kirishmasak, keyin kech qolamiz. Birinchi navbatda o'zimiz, har birimiz kirishaylik! "Toza havo" faqat qog'oza emas, amalda ham chini bilan milliy loyihamizga aylansin!

Gulruh MO'MINOVA.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 784 nusxada chop etildi. Buyurtma 593. Hajmi 2 bosma tabaq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

D.TO'XTAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda